NEMIS XALQ PAREMALARIDA NIKOH VA ER-XOTIN MUNOSABATLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Nuritdinova Sh.X.
Farg‘ona davlat universiteti
E-mail: shoiranurirdinova1961@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada nemis xalq paremalarida nikoh va er-xotin munosabatlarining aks etishi lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida nikohning muqaddas ahd sifatida talqin qilinishi, turmush qurishda mas’uliyat va ehtiyotkorlikning targ‘ib etilishi hamda oiladagi gender rollarining paremiologik birliklarda ifodalanishi o‘rganildi. Nemis xalq maqollarida mujassam bo‘lgan madaniy qadriyatlar, ijtimoiy stereotiplar va oilaviy munosabatlar tizimi tahlil qilinib, ularning pragmatik va kognitiv xususiyatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, maqol, nikoh, er-xotin munosabatlari, oilaviy qadriyatlar, lingvokulturologiya, gender rollari.*

KIRISH

Til xalq madaniyatining eng muhim ko‘zgularidan biri hisoblanadi. Xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari va hayotiy tajribasi maqol va matallarda o‘zining eng ixcham va ta’sirchan ifodasini topadi. Oila va nikoh mavzusi esa har qanday xalq paremiologik fondining markaziy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Nemis xalq paremalarida ham nikoh, er-xotin munosabatlari, oiladagi burch va mas’uliyat, gender rollari kabi masalalar keng yoritilgan.

Paremiologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy me’yorlarini avloddan avlodga yetkazuvchi madaniy kod vazifasini bajaradi. Shu sababli nemis xalq maqollarini lingvokulturologik tahlil qilish orqali nemis xalqining oilaviy qadriyatlari va milliy mentalitetini aniqlash mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, lingvokulturologik va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Nemis tilidagi nikoh va er-xotin munosabatlariga oid paremalar semantik-mavzuiy guruhlarga ajratilib, ularning mazmuniy va pragmatik xususiyatlari o‘rganildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Nikohning muqaddas ahd sifatida talqini. Nemis xalq paremalarida nikoh ko‘pincha ilohiy iroda bilan bog‘liq hodisa sifatida tasvirlanadi. Bunga quyidagi maqol misol bo‘la oladi:

Ehen werden im Himmel geschlossen [1.125].

(“Nikohlar osmonda bog‘lanadi”).

Mazkur parema nikohning inson taqdirida oldindan belgilangan muqaddas ittifoq ekanligini ifodalaydi. Ushbu qarashlarning ildizi xristian diniy an’analariga borib taqaladi. Maqol nikohning oddiy huquqiy munosabat emas, balki ma’naviy ahd ekanligini ta’kidlaydi.

Nikohga tayyorgarlik va umr yo‘ldosh tanlash masalasi ham nemis xalq donishmandligida muhim o‘rin tutadi:

Heiraten ist kein Pferdekauf [2.67].

(“Uylanish ot sotib olish emas”).

Maqolda nikoh oddiy savdo bitimi bilan qiyoslanib bo‘lmaydigan mas’uliyatli qaror sifatida talqin etiladi. Paremaning pragmatik vazifasi yoshlarni puxta o‘ylashga undashdan iborat.

Shuningdek,

Heiraten in Eile bereut man mit Weile [3.132].

(Shoshilib qurilgan nikohning pushaymoni uzoq davom etadi) maqoli shoshqaloqlik bilan tuzilgan nikoh uzoq davom etadigan pushaymonlikka sabab bo‘lishini ifodalaydi. Ushbu parema ogohlantiruvchi xarakterga ega bo‘lib, ehtiyotkorlik konseptini targ‘ib qiladi.

Er va xotinning oiladagi o‘rni. Nemis xalq maqollarida oiladagi gender rollari ham yaqqol aks etgan.

Der Mann ist das Haupt der Familie und die Frau ist der Hut darauf [4.340].

(“Er oilaning boshi, ayol esa shu boshdagi shlyapadir”).

Maqolda erkak oilaning rahbari sifatida tasvirlangan bo‘lsa, ayol uning mavqeini to‘ldiruvchi unsur sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa tarixiy patriarxal qarashlarning mahsuli sifatida baholanadi.

Boshqa bir maqolda esa ayolning iqtisodiy faoliyati va tejamkorligi yuqori baholanadi:

Was die Frau erspart, ist so gut, als was der Mann erwirbt [5.431].

(“Ayol tejagan narsa erkak topgan narsaga teng”).

Maqolga ko‘ra, ayolning tejamkorligi erkakning daromad topishi bilan teng ahamiyatga ega. Ushbu parema oilaviy iqtisodiyotda ayolning muhim rolini e’tirof etadi.

Shu bilan birga, ayrim paremalarda ayollarga nisbatan salbiy stereotiplar ham uchraydi:

Die Frau kann mit der Schürze mehr aus dem Hause tragen, als der Mann mit dem Erntewagen einfährt [5.431].

"Ayolning isrofgarchiligi erkakning katta mehnat bilan topgan daromadini ham yo‘qqa chiqarishi mumkin."

Mazkur maqolda ayolning ortiqcha xarajatlari oilaviy farovonlikka zarar yetkazishi mumkinligi kinoyaviy tarzda ifodalangan.

Nikoh va hokimiyat munosabatlari. Nemis paremiologik fondida oiladagi hokimiyat va mulkiy munosabatlar ham aks etadi:

Wenn eine Frau einen goldenen Stuhl mitbringt, will sie auch darauf sitzen [6.512].

"Ayol uyga oltin kursi olib kelsa, unda o‘zi ham o‘tirishni istaydi."

Ushbu maqol kelinning boyligi oiladagi mavqeiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini anglatadi. Paremada moddiy kapital va oilaviy hokimiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik metaforik vositalar orqali ifodalangan.

XULOSA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, nemis xalq paremalarida nikoh va er-xotin munosabatlari muhim lingvomadaniy konseptlardan biri hisoblanadi. Paremalarda nikohning muqaddasligi, turmush qurishda ehtiyotkorlik va mas’uliyat, oiladagi gender rollari hamda iqtisodiy munosabatlar aks etgan. Mazkur paremiologik birliklar nemis xalqining tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy stereotiplari haqida muhim ma’lumot beradi.

Shuningdek, zamonaviy Germaniya jamiyatida gender tengligi tamoyillari rivojlanayotgan bo‘lsa-da, xalq maqollarida tarixiy patriarxal qarashlarning izlari saqlanib qolganligi kuzatiladi. Bu esa paremalarning xalq mentaliteti va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2015. – 240 S.
2. Moser D.-R. Redensarten und Sprichwörter im Alltag. – München: Beck, 1985. – 216 S.
3. Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. – Freiburg: Herder Verlag, 2006. – 1800 S.
4. Röhrich L. Das große Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. – Freiburg: Herder Verlag, 1991.-630 S
5. Röhrich L. Das große Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. – Freiburg: Herder Verlag, 1991. Band 1 (A–Ham): 638 S.
6. Dudenredaktion. Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Idiomatik. – Mannheim: Dudenverlag, 2020.928 S
7. Safarov Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 174 b.